

SO'Z TURKUMLARINING SINTAKTIK XUSUSIYATLARIGA OID TADQIQOTLAR TAVSIFI

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi o'zbek tilida so'z turkumlarining sintaktik xususiyatlari hamda gap bo'laklariga ixtisoslashish qonuniyatlari va bularning barchasini qamrab oluvchi nrammatik tadqiqotlarning ilmiy-nazariy tavfsifi bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Grammatika, sintaksis, morfologiya, gap bo'laklari, so'z turkumlari, egalik kategoriyasi, kelishik kategoriyasi, sintaktik tahlil, ixtisoslashuv.

ОПИСАНИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ СИНТАКСИЧЕСКИХ ХАРАКТЕРИСТИК СЛОВОВЫХ ГРУПП

Аннотация. В данной статье описаны синтаксические особенности современных групп узбекского языка и законы специализации на части предложения, а также научно-теоретическое описание грамматических исследований, охватывающих все это.

Ключевые слова. Грамматика, синтаксис, морфология, части речи, группы слов, категория владения, категория согласия, синтаксический анализ, специализация.

DESCRIPTION OF RESEARCH ON THE SYNTACTIC CHARACTERISTICS OF WORD GROUPS

Abstract. This article describes the syntactic features of the current Uzbek language groups and the laws of specialization into the parts of the sentence, as well as the scientific and theoretical description of Grammatical studies that cover all of this.

Keywords. Grammar, syntax, morphology, parts of speech, word groups, category of possession, category of agreement, syntactic analysis, specialization

Kirish. Tilshunoslik tarixida so'z, uning ta'rifi, tuzilishi, shakllarini tasnif etishdek ko'p o'rganilgan masala kam uchraydi. Bu mavzuda qadimdan Arastu, Panini va shu kabi faylasuflar ham izlanishlar olib borishgan. Sababi, so'z leksik va grammatik butunlik sifatida har bir tilshunosdan o'z tabiatini, xususiyatlarini ochishni, o'z fikr va nazariyalariga qarab uni leksik-grammatik talqin qilishni talab etadi. Bu jihatdan har bir so'z o'zining leksik, morfologik, sintaktik, semantik ma'nolariga ega bo'ladi. Ushbu ma'nolarni yuzaga chiqarish bugungi kun tadqiqotchisidan yuksak ilmiy salohiyat talab etadi.

O'zbek tilshunoslining asosiy tarkibiy qismi sanalgan grammatika ikki bo'limga ajralishi haqida avvalgi qismda to'xtalib o'tildi. Morfologiya va sintaksis, bir vaqtning o'zida, o'zaro mushtarak, ham alohidalik xususiyatlariga ega bo'lgan bo'limlardandir. Morfologiyada so'zlarni turkumlarga ajratib o'rganilsa, sintaksisda so'zlarning gap bo'laklariga moslashish masalasi ham alohida ilmiy qiymat kasb etadi. Mazkur masalaning tub mohiyatiga eta olmagan kishi, ya'ni so'zning morfologik va sintaktik xususiyatlarini bir-biridan farqlamagan. Kishida ikkilanish hamda turli xil savollar paydo bo'la boshlaydi. Masalan, "Men kitob sotib oldim" gapida kitob so'zi ot so'z turkumiga tegishli, u sintaktik jihatdan to'ldiruvchi vazifasini bajarmoqda. Mana shu holatni to'g'ri baholay olmagan. Kishida bitta so'z ham ot, ham ega yoki to'ldiruvchi bo'la oladimi degan gumonda qolishi mumkin. Ko'pincha bunday vaziyatlar maktab o'quvchilarini orasida uchrab turadi. Buning oldini olish uchun esa o'qituvchilardan ilmiy salohiyat talab etiladi. Umuman olganda, so'z turkumlarining gap bo'laklariga ixtisoslashuvi masalasida, qolaversa, so'z turkumlarining sintaktik xususiyatlariga doir bir qancha tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Tadqiqot ishining oldiga qo'ygan maqsad va

150

vazifalaridan kelib chiqqan holda ana shunday tadqiqotlarda ilgari surilgan ilmiy nazariyalarga atroflicha to‘xtalib o‘tish joiz.

O‘zbek tilida so‘z turkumlarining gap bo‘laklariga ixtisoslashuviga doir ko‘plab ishlar ko‘rib chiqildi. Mazkur holat, ko‘pincha egalik, kelishik, shaxs-son kategoriyalari va so‘z turkumlarining gapdagi vazifasi bilan bog‘liq jarayon ekanligi ma’lum bo‘ldi. Mustaqil so‘z turkumi hiosblangan ot gapning tuzilishida, uning tarkibiy qismida ega, kesim, to‘ldiruvchi, aniqlovchi kabi vazifalarda keladi. So‘zlarni mazkur vazifalarda kelishi egalik, kelishik kategoriyasiga, ko‘plik shakliga bog‘liq. Birgina ko‘plik ma’nosini o‘zining morfologi, sintaktk, leksik mazmun ifodalaydi.

Bugungi kunga qadar morfologiya hamda sintaksisning o‘zaro aloqalari, aynan so‘z turkumlarining gap bo‘laklariga ixtisoslashuviga doir ilmiy yangiliklar yaratgan, bu borada o‘zining ilmiy mushohadalarini bildirgan olimlar talaygina. Ulardan E.Fozilov, M.Mirtojiyev, A.Potebnya, R.Sayfullayeva, O. Azizov, A.Nurmonov, Sh.Iskandarova, J. Eltazarov, N. Mahmudov, A.Abduaizovlarning xizmatlari beqiyos bo‘lgan.

Tishunoslik tarixida *-lar* affiksi anglatadigan sintaktik yo‘l haqida ham ma’lumotlar uchraydi. Sintaktik usul orqali ko‘plik ma’nosini otning son yok miqdor bildiruvchi so‘z bilan birikishi natijasida hosil bo‘ladi.

Tilshunos E.Fozilovning fikricha egalik kategoriyasi ikki xil yo‘l bilan yuzga chiqadi: **sintaktik yo‘lda** qaratqich kelishigidagi ot egalikni, unga mansub bo‘lgan predmet egalik affiksiz kelib, qaralmishni ifodalaydi. Masalan, *begin ot-* bekning oti (“Qutadg‘u bilig”dan); morfologik-sintaktik yo‘lda egalikning ikki usuli qaytariladi, ya’ni birinchi marta qaratqich kelishigi bilan, ikkinchi marta esa egalik affiksi bilan beriladi. Masalan, *mənin budunym – mening xalqim, anıñ savы – uning so‘zi, sənин savы – sening so‘zing*.

Manbalarni kuzatish jarayonida ma’lum bo‘ldiki, har bir so‘z turkumiga xos bo‘lgan birliklarning gap strukturasida o‘ziga xos o‘rni bor. Masalan, ot, sifat, son, fe’l, olmosh, ravish so‘z turkumlari ham morfologik ham sintaktik vazifani bajaradi. Misol tariqasida kelishiklarni oladigan bo‘lsak, gap bo‘laklariga xoslashishda ularning o‘rni beqiyos. Jumladan, bosh kelishik qo‘shimchasi tarixiy yodnomalarda ega vazifasini bajargan va mazkur vazifa eng mashhurlaridan sanalgan: *Tabg‘ach qag‘an yag‘ымыз erti – Tabg‘ach xoqon dushmanımız edi*. (To‘nyuquqdan).

“O‘zbek tilining tarixiy morfologiysi” asarida keltirilishicha, eski yodnomalarda, ko‘pincha, ega vazifasida jonli predmetlar qo‘llanilgan. To‘nyuquqda 122 ta gapning faqat 11 tasida ega vazifasida jonsiz predmetlarning kelganligiga guvoh bo‘lamiz. Umuman olganda, turkey run yodnomalarida jonli predmetlarning ega vazifasida kelishi biroz siyrak ekanligi ta’kidlanadi. Qolaversa, runikm obidalarda mavjud bo‘lgan 144 ta shaxsl gapning 18 tasida ega kishilik olmoshlari bilan ifodalangan.

Tarixiy manbalarda uchraydigan so‘z turkumlarining sintaktik xususiyatiga doir ko‘plab fikrmulohazalarini o‘rganib chiqildi. Endi aynan shu holat hozirgi o‘zbek adabiy tilida qanday ekanligiga qiziqib ko‘ramiz.

Har qanday til birligi shu tilda so‘zlashuvchi xalq o‘rtasidagi muomala, muloqot ehtiyoji bilan yaraladi. Uni muomalaga kiritish shu til grammatikasidan tashqarida bo‘lmaydi, ya’ni unga grammatic turkum sifatida qaraladi. Agar u sintaksisga oid qarash bo‘lsa, sintaktik shakl hisoblanadi. Mazkur masalada fikr yuritgan tilshunos M.Mirtojiyev bir qancha chet olimlarining fikrlarini keltirib o‘tadi: “Sintaktik sathda biror so‘z o‘z shakli bilan namoyon bo‘lar ekan, shu shakllangan so‘zda ifoda topgan semantika ham kuzatiladi. Shuning uchun V.G.Gak: “Gap bo‘lagi mustaqil ma’noli so‘zning gapda namoyon bo‘lishini va sintaktik shakllanganligini ko‘rsatadi”, - deydi. O’sha V.Gak tilga olgan mustaqil ma’noli so‘zda hamma vaqt moddiy dunyo bilan bog‘liq qandaydir ifoda qayd etiladi. Tilshunos shunga ko‘ra ham yana bir necha qatordan keyin: “Gap bo‘lagida sintaktik birlik bilan barobar moddiylikva grammatic ifoda ham bo‘ladi”, - deydi. Sintaktik tahlil jarayonida semantikani nazarda tutish va uni chetlab o‘tmaslik kerak. F.A.Danesh ham sintaktik tahlilning uch sharti bilan uning birligidagi semantik mustaqillikni ham e’tiborda tutishni uqtirgan edi.”

Shundan so‘ng olim keltirilgan nazariy fikrlarga o‘z munosabatini bildiradi. Haqiqatdan ham sintaksisning asosida kommunikatsiya jarayoni yotadi. Ya’ni kishilar o‘zaro turli xil gap tuzilmalari orqali muloqot jarayonini hosil qilishadi. Gaplar esa so‘z shakllarining o‘zaro ma’no va grammatic birikishi natijasida hosil bo‘ladi. Kommunikatsiya ma’lum ma’nolar sintezidan iborat mazmunni tinglovchiga etkazish hisoblanadi. Umuman olganda, so‘zlar gap uchun saylanib olinar ekan, ular o‘z turkumidan kelib chiqib, turlicha ma’nolarda qo‘llanadilar. Yordamchi so‘zlar gap tarkibida ma’lum

bo'lak vazifasini o'tay olmaydi. Gap bo'lagi vazifasi uchun mustaqil ma'noli so'zlardan saylanadi. Mustaqil ma'noli so'zlar semantikasida hamma vaqt moddiylik ifodasi etakchi o'rinda turadi.

Jahon olimlaridan A.Potebnyaning qarashlari tadqiqot ishimizga mos kelishi bilan xarakterlanadi. Shu sababdan tilshunosning qarashlariga to'xtalishga qaror qilindi. So'z turkumlariga yondashuvda A.A.Potebnya ularning sintaktik vazifasini bиринчи о'ringa qo'ydi. Alovida olingen so'zning ma'no qiymatiga shubha bilan qaragan A.A.Potebnya "tilimizdagi gaplarning muhim belgisi unda so'z turkumlarining mavjudligidir, agar gap tarkibida ular yo'q bo'lsa, u holda gap ham yo'q", deb qat'iy fikr bildiradi.

So'z turkumlari olim uchun faqat gap bazasida mavjud bo'lgan grammatik kategoriyadir. Shu sababli u, ko'proq Hind-Yevropa tillarini nazarda tutgan holda, gapning vujudga kelishi va uning bosqichma-bosqich rivoji haqidagi farazni ilgari surdi. A.Potebnya tilni faoliyat sifatida tushungan holda fe'l, ot, sifat, ravish kabi grammatik kategoriyalarga o'zgarmas, inson tafakkurining doimiy xususiyatlaridan umrbod chetlatilgan narsalar sifatida qarash mumkin emas, deb hisoblaydi. Aksincha, bu kategoriyalar nisbatan qisqa davrlarda sezilarli o'zgaradilar, bu o'zgarishlar esa gapning taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqdir.

A.A.Potebnya fe'l, ot sifat, son, ravish kabi so'z turkumlarining kelib chiqishini gap bo'laklarining (ega, kesim, aniqlovchi, holning) shakllanishi va rivoji bilan bog'laydi. Masalan, u bobo tilda ot va fe'lning bir vaqtida shakllanishini ega va kesimdan iborat sodda gaplarning shakllanishi bilan bog'laydi. Sifatning ottan ajralib chiqib, mustaqil so'z turkumiga aylanishini belgining nomini bildiruvchi ba'zi otlarning sifatga siljishi (bu jarayon aniqlovchining gap bo'lagi sifatida shakllanishi orqali ro'y bergen) bilan tushuntiradi.

O'zaro aloqa va ta'sirda shakllangan so'z turkumlari o'rtasidagi differentsiatsiyaning tobora chuqurlashib borishi tufayli hozirgi so'z turkumlari paradigmasi va gap qurilishi vujudga kelgan. A. A. Potebnya so'z turkumlari ichida (va umuman til sistemasida) fe'lning roli oshib borishi haqidagi g'oyani ham olg'a surdi, bu g'oyaga ko'ra til taraqqiy qilgan sari turli til sathlari (so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis)da fe'lning roli oshib boraveradi. Bu farazni "fe'lning ahamiyati o'sib borishi" haqidagi nazariya, deb ataydi.

Umuman, A.A.Potebnyaning so'z turkumlariga yondashuvda sintaktik tamoyil etakchi o'rinish tutadi, olim so'z turkumlarini dinamik hodisa sifatida o'rganadi. Uning nazariyasi haqiqatdan ham dolzarb. Har bir so'z turkumi o'z sintaktik vazifasi ortidan namoyon bo'ladi. Bitta so'z bir o'rinda ega vazifasini bajarsa, bir o'rinda kesim yoki boshqa bo'lak vazifasida kelishi mumkin. Natjada so'z shaklining imkoniyatlari naqadar keng ekanligi, imkoniyat chegarasi kengligi namoyon bo'ladi.

Prof. J.Eltazarovning doktorlik dissertatsiyasi ishida bir qancha jahon tilshunoslarining so'z turkumlarining turli xil o'ziga xosliklari, xususiyatlari haqidagi fikrlari, bahslari haqida mulohazalar beriladi. Ular orasida E.Kurilovichning fikrlari e'tiborni tortdi. Bu haqida olim shunday fikrlarni keltiradi: E.Kurilovich so'z turkumlarining o'zaro aloqasi va ko'chishini sintaktik vazifa tufayli va semantik maydon ta'siridagina yuz beradi, deb hisoblaydi. Har qanday so'zning birlamchi funksiyasi mavjud, birlamchi funksiyani ikkilamchisiga almashtirish sintaktik vazifa va semantik qurshovning o'zgarishi tufayli yuz beradi, masalan, nutqda «ko'r odam» tushunchasini «ko'r» so'zi bilan berish tufayli ko'r so'zi aniqlovchi (sifat) funksiyasidan ot vazifasini bajarishga o'tadi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida ham morfologik kategoriyalarning sintaktik vazifalari mavjud. Bu, ayniqsa, egalik, kelishik kategoriyalariga yaqqol ko'zga tashlanadi. Egalik kategoriyasi shakllarining sintaktik vazifa bajarishi istagan turga xos bo'lgan gap qaratuvchi birikma variantiga ega bo'lishi mumkin: *do'stlardan bitta – do'stlarning bittasi, pulga qul – pulning quli, oriyat uchun kurash – oriyat kurashi*.

Shunday holatlar ham bo'ladiki, ba'zan egalik kategoriyasining sintaktik vazifasi ba'zi so'z tarkibida butunlay yo'qolib ketadi: kechasi, o'rni, qaysi kabi.

Kelishik shakllari hozirgi o'zbek adabiy tilida ham so'z turkumlarini gap bo'laklariga molsovchi umumiyligi kategoriyasi sanaladi. Bu haqida "Zamonaviy o'zbek tili" nomli monografiyaning morfologiya qismida: Darslik va qo'llanmada bosh kelishik kesim vazifasidagi so'zni ham shakllantiradi deyiladi: *Otam – o'qituvchi. Dil qulfı – til* kabi. Biroq bunda o'qituvchi, til so'zshakl kesim vazifasida bo'lib, boshqa bo'lakka mutlaq hokimdir. Kelishik kategoriyasining sintaktik mohiyati esa "sintaktik qurlmada oldingi so'zni keyingi so'zga bog'lash". Bu mohiyat nuqtayi nazaridan kelishikka munosabatda bo'ladigan bo'lsak, kesimda bosh kelishikni qidirish mantiqsizlik, - deya izohlanadi va quyidagi sabablar keltiriladi:

- kesimlik kategoriyasi tarkibi murakkab bo'lsa-da, unda kelishik shakli mavjud emas;
- kelishik kategoriyasi umumturkiy kategoriya ekan, unda kesim vazifasidagi barcha mustaqil so'zda kelishikni qidirishga to'g'ri kelar edi;
- kelishik kategoriyasi sintaktik mohiyati "oldingi so'zni keyingi so'zga bog'lash" ekan, kesim eng oxirgi so'z bo'lib, undan keyin bog'lanadigan birlik yo'q;
- ayrim tadqiqotda bunday paytda kelishik ma'nosi va vazifasi o'ta darajada kuchsizlashadi, deyiladi. Aslida bunda kuchsizlanish shu darajadaki, kelishik mohiyati mutlaqo voqelanmaydi – "ko'rinnmaydi". Bu esa ushbu pozitsiyada kelishikni qidirmaslikni taqozo etadi.

Ko'plab tilshunoslarning fikricha, turkiy tillarda boh kelishikdagi so'zlar gapning istagan bo'lagi bo'lib kela olishini aytishadi. Bu imkoniyatni chegaralangan ekanligini shu o'rinda unutmaslik lozim.

Yuqorida so'zlarning bir nechta tasniflari mavjud ekanligi aytib o'tildi. Shu jumladan, so'zlarning sintaktik tasnifi ham tilshunoslar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, leksemaning sintaktik tasnifida uning nutqda boshqa leksema bilan bog'lana olish-olmasligi, gap bo'lagi bo'lib kela olish-olmaslik xususiyati o'z aksini topadi, ular quyidagicha:

1. Gap bo'lagi bo'lishga xoslanmagan so'z: *undov, modal, so'z-gap*.
2. Gap bo'lagi bo'lishga xoslangan so'z: *fe'l, ot, sifat, son, ravish, taqlid, olmosh*.
3. Sintaktik aloqa vositasi bo'lishga xoslangan so'z: *ko'makchi, bog'lovchi, yuklama*.

Bundan kelib chiqadiki, so'z-gap boshqa so'z turkumlari bilan sintaktik aloqaga kirishmaydi. Uning o'zi mustaqil gap bo'lagi bo'lib kelish qobiliyatiga ega. Mustaqil va yordamchi so'z esa bog'lanish xususiyatiga ega bo'lib, bundan yordamchi gapda alohida bo'lak bo'lib kela olmaydi, balki sintaktik jihatdan bog'lash vazifasini bajaradi, mustaqil so'z esa mustaqil ravishda gap bo'lagi bo'la oladi.

Tilshunoslik nazariyasi bo'yicha ko'plab ishlar muallifi bo'lgan A.Abduaizizovning qarashlarida ham so'z turkumlarining gap bo'laklariga ixtisoslashuvi, ularning sintaktik holatiga doir qarshlar mavjud. So'zlarning guruhlarini ularning turli sintaktik o'rirlarida qo'llanishi jihatdan qarash mumkin. Har bir mustaqil so'zga bo'ysinuvchi boshqa so'zlar qo'llanish o'rnnini izohlaydi. Masalan, juda katta so'z birikmasida *katta asosiy* so'z, juda unga bo'ysunuvchi so'z bo'lsa, maktabga bormoq so'z birikmasida *bormoq* asosiy so'z, maktab unga tegishli so'zdir. So'zlarning belgilari ularning matnda qo'llanishini chuqur o'rganish natijasida oydinlashadi. Binobarin, har bir so'z turku-miga xos so'zlarning boshqa — qaysi guruhdagi so'zlar bilan birika olishi va ularning qo'llanish qoidalari aniqlash zarur. Har bir so'z turkumi o'ziga xos semantik belgilari bilan ajralib turadi, lekin so'z turkumlarining tasnifida semantik belgilarni asosiy emas. Chunki shunday so'zlar borki, ular ikki-uch so'z turkumiga xos belgilari bilan ajralib turadi. Masalan, *sarg'aygan*, yugurish so'zlarini semantik jihatdan alohida jarayonga tegishli bo'lib, ayni vaqtida grammatik ma'nosi bilan ajralib turadi, ya'ni *sarg'aygan* so'zi *sifatdosh* — narsaning belgisini bildiradi, *yugurish* — harakat nomini (*fe'lning* bir shakli) ifodalaydi.

Morfologik birliklarning asosiy xususiyati biror predmet yoki holatni nomlash, uning belgi-xususiyatlarini, miqdorini, holatini, darajasini aniqlash, harakatlarning turlarini ifoda etishdan iboratdir. Ular o'z o'rnida so'zshakl ko'rinishida mavjud bo'lsa, sintaksisida imkonyatlari cheklanib qolishi ham mumkin. Ya'ni mustaqil bo'lgan bir so'z gapning tarkibida o'z mustaqil mohiyatini yo'qotishi mumkin. "Gap qismalari so'zdan iborat bo'lib, so'zda gap mazmunining ma'lum bir qismi aks etadi. Shuni aytish zarurki, gap doirasiga kirgunga qadar mustaqil bo'lgan so'z nutqda (gapda) har doim ham mustaqil birlik sifatidagi mavjesini oqlashi shart emas". Sababi, gap tarkibida kelganida semantik jihatdan uning mazmuni yo'qolishi, sezilmasligi mumkin. Masalan, ust so'zini oladigan bo'lsak, u leksik jihatdan biror joy yoki predmetning tepe qismi haqidagi tushunchani beradi, morfologik jihatdan esa joy nomini anglatib, o'rin oti vazifasini bajaradi. Ushbu so'z ba'zi gaplar tarkibida ko'makchiga aylanadi hamda mustaqil ma'nosini yo'qotadi. Masalan, *gap muhabbat ustida borar edi* gapida ust so'zi mustaqil ma'nosini butunlay yo'qotib, o'zidan oldin kelgan so'z bilan birgalikda mazmun kasb etmoqda. Agar, *stolning ustida narsalar tartib bilan joyangan* gapini olsak, unda ustida so'zi mustaqi ma'no anglatadi, qayerda? so'rog'iga javob bo'ladi, gap bo'lagi nuqtayi nazaridan o'rin holi vazifasini bajaradi. O'zbek tilida bunday misollarni o'nlab keltirishimiz mumkin. Balki mana shu xususiyatlarni inobatga olib, A.Nurmonov, Sh.Iskandarovlar yuqoridagi xulosalarni bildirishgan bo'lishi mumkin.

Umuman olganda, morfologiyaning o‘rganish obyekti so‘z shakllarining ma’lum grammaatik ma’no asosidagi paradigmalari, grammaatik kategoriyalari bo‘lsa, sintaksisning o‘rganish nuqtasi gap, uni tashkil qiluvchi so‘z shakllarining o‘zaro grammaatik va mazmuniy munosabatlari hamda bu munosabatlarni yuzga chiqaruvchi vositalar hisoblanadi. Ya’ni morfologik birlik sintaktik birliklar asosida yuzaga chiqadi. Masalan, *uch* so‘zini olsak, uning omonim variantlari mavjud, bu - barchaga ma’lum. Biroq u kontekstdan alohida qolganida qaysi ma’noni anglatishi aniq bo‘lmaydi, qachonki ushbu so‘z biror vazifa bajarsa, gap tarkibida kelsa uning asl mohiyati, nimani anglatib kelyotganligi kontekst orqali oydinlashadi, qarabsizki, mazkur so‘z gap tarkibida biror bo‘lak funksiyasini bajarayotgan bo‘ladi. “Anglashiladiki, morfologik birlik bo‘lgan so‘zning shakli ham sintaksis uchun ahamiyatlidir. Lekin faqat so‘zning boshqa shakllari bilan aloqasi va sintaktik birlik ichda uning bir qismi sifatida bajaradigan vazifasi nuqtayi nazaridangina sintaktik qimmatga ega bo‘ladi”. Bu borada olimlar o‘z fikrlarni davom ettirar ekan, gap va so‘z birikmasini tashkil etuvchi eng kichik birlik so‘z va so‘z shakllari sanalishi, morfologik birlik hisoblangan so‘z shakli sintaktik birlik ichida ma’lum vazifa bajarishi, haqiqiy hayotni uning ichida topishi, bu esa sintaksis til tizimining morfologik sathi ustida turadigan yuqori grammaatik sath ekanligi haqida qat’iy xulosalar beradi.

Mazkur tadqiqot ishining tahlil metodlaridan biri semantik tahlil bo‘lib, semantikaning grammaatik yo‘nalishlar bilan o‘zaro aloqasi juda ahamiyatlidir. Negaki, har qanday so‘z shakli ham birlashib grammaatik shakllangan gapni hosil qilavermaydi. Gapni shakllantirishda, albatta, uning anglatadigan ma’nosiga alohida e’tibor qaratish shart. Ayniqsa, sintaksisning semantika bilan aloqasi kuchli, semantika uning tarkibiy qismi hisoblanadi. O‘z navbatida, sintaktika ham semiotikaning tarkibiy qismi vazifasini bajaradi. Bu borada N. MAhmudov hamda A.Nurmonovlarning quyidagi tasnifiga murojaat eish bilan cheklanamiz: “Mazmuniy-sintaktik munosabatlarni umumlashtirgan holda quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Subordinativ munosabat (ega-kesim munosabati).
 - a) Predikativ munosabat (to‘ldiruvchi-to‘ldirilmish);
 - b) Atributiv munosabat (sifatlovchi-sifatlanmish);
 - c) Relyativ munosabat (hol-hollanmish).
2. Koordinativ munosabat: qaratuvchi-qaralmish munosabati (ikki tomonlama munosabat)”.
3. Kopulyativ munosabat:uyushiq bo‘laklar munosabati.
4. Intraduktiv munosabat:
 - a) Vokativ munosabat (undalma – jumla mazmuni);
 - b) Modal munosabat (kirishning jumla mazmuni bilan munosabati).

Xullas, har bir grammaatik jarayon, grammaatik hodisaning tagida so‘z yotadi. Uning hosil bo‘lishi, fonetik, leksik, grammaatik xususiyatlari asosida muloqot shakllari, kommunikatsiya jarayonlari hsil bo‘ladi. So‘zdan to‘g‘ri va unumli foydalanish, uning mohiyatini anglab etish natijasida tilshunoslikda juda katta burilishlar, yangilanishlar hosil bo‘lishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan ilmiy-nazariy qarashlardan ma’lum bo‘ladiki, so‘z turkumlarining sintaktik xususiyatlari, gap bo‘laklari bilan aloqasi borasida amalga oshirilgan ishlar anchayin salmoqli. Dunyo tilshunosligi qatorida o‘zbek tilshunosligida ham bundayin ishlar talaygina.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. E.Fozilov. O‘zbek tilining tarixiy morfologiyasi. – Toshkent: Fan, 1965. 175 b. – B.9.
2. M.Mirtojiyev. Gap bo‘laklarida semantic-sintaktik nomutanosiblik. – Toshkent: Universitet, 2008. 208 b. – B.10.
3. Zamonaviy o‘zbek tili. / mas’ul muharrir R.Sayfullayeva. – Toshkent, 2008. 522 b. – B.400.;
4. Ж.Элтазаров. Ўзбек тилида сўз туркумларининг ўзаро алоқаси ва кўчиши./ Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Тошкент – 2007. – Б.14.
5. Потебня А.А. Из записок по русской грамматике. т. I-II. М.:Учпедгиз, 1958, с.15;
6. Тошкент, 2008. -176 б; N. Mahmudov, A.Nurmonov. O‘zbek tilining nazariy grammaatikasi (Sintaksis). – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – 228 b. – B. 4.